

KIMYO FANINI O`QITISHDA - BUMERANG TEXNOLOGIYASI

Hajiyeva Gulora Erkabayevna

TTA Urganch filiali akademik litseyi kimyo fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o`quvchilarning kimyo faniga bo`lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishda o`qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma`lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so`z:** *pedagog, o`qish, bilim, tarbiya, metod, fikr, ta'lim, ijtimoiy.*

Ta'lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o`qituvchi, ham o`quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo`ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog`liq.

O`qituvchi va o`quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`qituvchi o`quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`lar, bular o`qituvchi va o`quvchilarga bog`liq.

Ta'lim jarayonida o`rgatuvchi va o`rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (tsivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo`lgan. Bir vaqtlar ta'lim beruvchilar yetakchi bo`lgan bo`lsa, ma`lum davrlarda ta'lim oluvchilar tashabbuskor bo`lishgan va bunday faolliklarning ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o`n yilliklarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lim texnologiyalarini «hamkorlik pedagogikasi» deb atashmoqda. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo`llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri interfaol o`qitish metodlariga asoslangan. «Inter» so`zi lotincha bo`lib, o`zbekcha «oraliq», «o`rtasi», «o`zaro» kabi ma`nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o`rtasidagi o`zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimidagi o`zaro faol usullar (metodlar)dan tarkib topadi.

BUMERANG TEXNOLOGIYASI

Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o`roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan holda o`qituvchiga og`zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1.Darsda o`rganiladigan mavzu Anorganik birikmalarning asosiy sinflarining rejasida 4 ta mavzucha bo`lib, sinfdagi o`quvchilar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi

mavzucha Oksidlar o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh o'quvchilarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi Asoslar, Kislotalar va Tuzlar mavzuchalari ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagi guruhlarining o'quvchilariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi o'quvchilar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqishadilar.

2. Shundan keyin 4 guruh o'quvchilari aralashtirilib, Yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarining har birida dastlabki 4 guruhlarining barchasidan bir nechtdan o'quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, o'quvchilarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, o'quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir o'quvchi sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talaba-o'quvchiga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

5. Endi har bir o'quvchining baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa o'quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

6. Dars o'qituvchi tomonidan o'quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va o'quvchilarga to'plangan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtida yetishmovchilik kutilsa, to'rtinchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin.

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi ro'lida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi, o'quvchilarni dars

jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arziqulov A.U. Interfaol usullar. -Samarqand, 2003.
2. Ilg'or pedagogik texnologiya nima va uni qanday qilib o'quv jarayonida qo'llash mumkin. -Ma'rifat nuri gazetasi, 20 sentyabr 2007 yil.
3. Imomov X.X. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. -Toshkent: TDIU, 2006.
4. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -Toshkent, 2006.
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent, 2005.
6. Karimjonov I.A. va boshq. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent, 2002.

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH - INTERFAOL DARS

Otajanova Gulora Otaxanovna

TTA Urganch filiali akademik litseyi biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Bu maqolada zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish va innovatsion usullarni qo'llashda dars o'qitilganda sinfda qoloq, mavzuni o'zlashtirmaydigan o'quvchini ham o'ziga jalb qilishi va darsni juda qiziqarli o'tishiga qaratilgan ma'lumotlar qamrab olgan.*

Kalit so'zi: *ta'lim, o'quvchi, tizim, kimyo, pedagog, metod, interfaol.*

«Pedagogik texnologiya» iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha- pedagogik texnologiya (o'qitish texnologiyasi) o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat,-deb hisoblaydi. Professor N.Saydahmedovning aytishicha pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi. Professor M.Ochilovning yozishicha pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan metodlar va usullar majmuidir. Bu tushunchaga YuNESKO tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: pedagogik texnologiya- bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish, uni qo'llashning tizimli (loyihalashtirilgan) metodi (usuli)dir. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o'zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo'yib borganligi tufayli, ta'lim-tarbiya jarayoni ham zamonaviy ilg'or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Darsning texnologik xaritasini, zavodga tuproq shaklidagi chinni xom ashyoni topib kelishdan tayyor piyolagacha bo'ladigan barcha texnologik jarayonlar stsenariysiga qiyoslash mumkin.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Baxsli, muammoli vaziyat–insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Baxsli, muammoli vaziyatlar talaba-o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

Quyida biologiya darslarda kichik guruhlarda ishlashni tashkillashtirish haqida ko'rsatmalar keltirilgan.

-sinfning doska osilgan tomonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish uchun maxsus ekran yoki oppoq devorda yetarli darajada bo'sh joy bo'lishi kerak;

-o'qituvchi stoliga oldi bilan tirab bir parta qo'yiladi. Bundan ekspertlar, sardorlar, konsultatsiya olishga, uy vazifasini yoki boshqa nazoratlarini topshirishga kelgan o'quvchilar bilan suhbatlashishda foydalaniladi;

-xonadagi boshqa har ikki parta bir-biriga oldi bilan tirab qo'yiladi. Oqibatda to'rt o'quvchi bir-birlariga yuzma-yuz o'tirishadigan, doskaga yon tomonlaridan qaraydigan bo'lishadilar. Partalari yonma-yon turgan ikki kichik guruh birlashtirilib 8 o'quvchidan iborat kichik guruhlar hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi mehnati ikki marta qisqarib, o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari yanada kuchayadi. Natijada butun o'quv yili davomida doimiy ravishda hamkorlikda ishlaydigan kichik guruhlar shakllanadi;

-har bir kichik guruhda kamida bitta yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi (sardor, ekspert) bo'lishi kerak;

-sardorlar bir-birlari va o'qituvchi-trener bilan maslahatlashishga borishlari uchun partalarning qulay tomonida o'tirganlari ma'qul;

-o'qituvchi taklif etmagan holda uning huzuriga konsultatsiya uchun faqat bir o'quvchining kelishiga ruxsat etiladi;

-bunday darsda bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun, aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi texnologiyalardan kompleks foydalanish kerak;

-yangi pedagogik texnologiyalardan har darsda sistematik foydalanilmasa kutilgan natijani bermaydi;

-o'qituvchi-trener masala sharti va yechimini ekranga tushirib tushuntirgach, shunga o'xshash bir xil topshiriqni barcha kichik guruhlariga hamkorlikda bajarishlari taklif etiladi;

-ekranga tushirilgan masala sharti va yechimini tushuntirish jarayonida aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi interfaol metodlardan foydalanish qulay va yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilarga noto'g'ri bo'lsada o'z fikrlarini bildirishlari, qo'rqmasliklari, har qanday noo'rin fikrlarga ham tanqidiy munosabat bildirilmasligi oldindan aytilishi kerak. O'quvchini, umuman bolani fikrlashdan to'xtatish jamiyat taraqqiyoti oldiga to'siq qo'yish bilan barobar;

-o'qituvchi o'quvchilardan navbatdagi dars mavzusiga doir nazariy materiallarni uyda o'rganib kelishlarini qat'iy talab etishi zarur;

-topshiriqni bajara olmagan ayrim kichik guruh sardorlarining boshqa kichik guruhlardan va o'qituvchi-trenerdan yordam olishlariga ruxsat etiladi;

-agar bitta kichik guruh ishini bajara olmasa, kuchli sardorlardan birining ularga yordam berishi uyushtiriladi;

-topshiriq birorta ham kichik guruh tomonidan bajarilmasa, oldin o'rgatilgan masala yechimi yana ekranga chiqarilib, o'qituvchi-trener tomonidan qayta tushuntiriladi. Shu tartibda o'quvchilar hamkorlikda mustaqil ishlashga o'rgatiladi;

-sardor sust o'zlashtiruvchi sheriklarining o'z imkoniyatlari darajasida o'qishlariga mas'ul;

-sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'qituvchi-trener va sardorlarning doimiy e'tiborida va ko'magida bo'lishlari, ularning har qanday kichik muvaffaqiyatlari rag'batlantirilishi zarur;

-qo'yilgan topshiriqning qaysi kichik guruh sardori tomonidan birinchi bajarilganligi, qaysi sardorning boshqa kichik guruhlar sardorlariga necha marta yordam berganligi belgilangan bir o'quvchi tomonidan yozib boriladi. Bu yozuvlar va o'qituvchining shaxsiy kuzatishlari natijalari bo'yicha kichik guruhlar va sardorlar rag'batlantiriladi.

Kichik guruhlarda ishlashda foydalaniladigan qo'shimcha metodlar.

QOR BO'RON METODI

Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

GALEREYANI AYLANISH METODI

Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komenskiy YA.A. Buyuk didaktika. -T.: O'qituvchi, 1975.
2. Ojegov S.I. Slovar russkogo yazyka. -M.: Russkiy yazik, 1983.
3. Pardayev M.Q. Iqtisodiyotga oid fanlarni yangi pedagogik texnologiya metodlarini qo'llab o'qitish. -Samarqand, 2007.
4. Saydahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -Toshkent, 1999.
5. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llash. Toshket, 2000.
6. Sadriddinzoda SH.J., Eshmurodov M.SH. Pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish kursi bo'yicha ma'ruzalar to'plami. -Samarqand, 2007.
7. Xodiyev B.YU., Golish L.V. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. -T.: TDIU, 2006.
8. Yangi pedagogik texnologiyalar haqida. -//Tuzuvchilar E.Turaqulov va boshq. - Samarqand, 2007.

MASTERING TEACHING ENGLISH FOR YOUNG LEARNERS

Muratbayeva Lobar Hamro qizi

Author:

Abdisheribov Sulayman Javlanbek o'g'li

Co author:

Student of Urgench State University, Foreign philology faculty

Teacher at Urgench State University, Roman-German philology department

Abstract: *Teaching language to old learners differs from teaching language to young learners. Young learners have certain characteristics that are different from old learners that influence their foreign language acquisition. Teaching a foreign language is easy if we understand the rules well. The rules are to understand the characteristics of our students, to master some suitable methods and to choose suitable material. Young learners have certain characteristics that set them apart from older learners. In relation to certain characteristics, the teacher must understand to differentiate the method he uses to teach the young learners English as a foreign language. In order to strengthen the teaching, the teacher must have a good command of the material.*

Key words: *Young learners, characteristics, suitable methods, suitable material.*

INTRODUCTION

Language has some skills to understand; listening skill, speaking skill, reading skill, and writing skill. Those skills have their own characteristics to be understood and to be mastered. Mastering all those skills needs some certain method too, but we can learn them as step by step. Every language teacher should understand well related to the skills when they are teaching language. It influences teaching the language. As a teacher should understand well which skill the students should learn first, how to teach each skill, and what the characters of the language learners. When the teacher understand those well, it will be easy to recognize the learners, to choose the suitable method, and to find the suitable materials. Teaching foreign language is different from teaching first language, even though some of the orders are same. Before we teach second language, of course we have to understand the first language then before we learn foreign language we have to understand the second language. Even sometimes we do not understand each of them well, but it should be better if we understand well. Those can help the learners easier to acquire the second language or foreign language. It is because the first language can be used as a tool to explain and study second language and also foreign language. When the language learners learn the language they must find some difficult word or phrases, they can understand the meaning from their own language explanation or definition. Sometimes, different language has different definition and term, out of the context.

Related to teaching language, because language has some skills, teaching language also has some certain method to teach. And teaching language need much practice too to master the language. If the learners learn the theory of linguistics, they do not need to much practice the language, for example they do not need much to practice speaking and writing in a context. They just learn the theory of linguistics. Moreover, if the learners learn the language to teach it into Young Learners, they have to try to practice it actively, well, and fluently. It is because young learners are active learners need to be taught actively too. And usually the young learners emphasize on language practice. They need the language to be practiced and used. Most of them use the language orally. In Indonesia, now English is out of curriculum for elementary school, even though at the previous period about 2010s Indonesian curriculum placed English Language inside. In Indonesia since 1994, elementary school have been taught English as a local content subject. According to Kunjana Rahardi, a master of socio-Linguistic Gajah Mada University (UGM), teaching English in early age will impact bad effect for the children related to the national language (Indonesia). Mastering mother language and national language will influence second or foreign language acquisition (voaindonesia, 2012).

Whereas, some schools places the English into extra classes or additional classes, some schools do not leave English as a compulsory subject, but in some countries English is a compulsory subject in the early primary grades (Niclove, 2009; pinter 2006). Moreover, Shin and Crandall (2011) showed that for recently years, about 50 countries in the world placed English Language as a compulsory subject at the third grade.

YOUNG LEARNERS

Young learners are different from old learners of course. They are unique; they have smart brain which is fresh, clean, and fast. Most of them are attractive. Who is young learner? There are some opinions related to them. The British Philosopher, John Stuart Mill started to learn Greek at three years old, but it was not generally children. Some of them said that young learners are children whose age less than 12 years old. According to Scooth and Lisbeth, young learners are they who have age under 11 years old. For the teacher who concern in teaching English to young learners they have to understand the characteristics of young learners in order understanding the students' needs, knowing the suitable method to teaching young learners.

According to Scooth and Lisbeth (1992) in Handoyo, there are some characteristics of young learners: □

- Children age 8-10 are mature enough □
- They have particular point of view □
- They can describe the difference between fact and fiction □
- They are curious of asking questions □
- They believe of what is said and the “real” word to express and comprehend meaning/message
- They have distinct option about what they like and what they dislike □

- They are open to what happens in the classroom and begin asking the teacher decision □
- They can cooperate with other people and learn from another.

Teaching English for Young Learners

In a pedagogical context, foreign language teaching to children differs from mother tongue teaching, but possibly from their acquisition and learning of a foreign language, and even they learn faster than after puberty (McLaughlin, 1978). On the other hand, Long (1990) found that children are less able to absorb or acquire foreign languages. There are two types of classes in our country, formal school and informal school. Wherever the location of the young learner class is, it is young learners learning a foreign language. The teacher should understand and master teaching young learners.

Some of the above has been explained in relation to the importance and choices of learning English as a foreign language. As we know, lately some parents prefer their children to be proficient in English. They hope that learning English early can help children acquire a foreign language. Also in some schools English does not become a major but only a local content subject. But neither the parents nor the teacher make a page out of it. As an English teacher, their only duty is to educate and educate the students in English, that is what they should do.

English is one of the foreign languages. Basically, children have their own language in which they spend time. Children are competent users of their language. They have their own symbols, abstract, generalize and systematize based on the syntax of their language used. It occurs in the general language development of children. If the foreign language can then come to them, they cannot be understood exactly. This is because there is almost the same difference between learning the first language for the children from an early age and learning a foreign language for the children or students who have the first language. Lisbeth explained that no one has found the universal pattern of language learning that everyone agrees with. But a lot depends on people's native language, social, emotional factors and the background of the children.

An English teacher for young learners should have a good command of English itself, the methods and models of teaching English, especially to young learners. An English teacher must also be able to be a creative teacher, he can make and use many things that become requirements for teaching young learners who are suited to it. For additions as a teacher should teach using hearing so the teacher can make a connection between what the teacher is feeling and what he is trying to achieve with the children. If the teacher can feel what the students are feeling or connect their feeling to learn, the teacher will be easy to teach and the students will be easy to understand what the teacher has provided. If the teacher only what he is supposed to teach and convey the material is not enough, it can be less useful.

Songs in teaching English for Young learners

Song is some words and rhyme which is delivered in rhythm and beautiful tone. The teacher uses song to teach to make students interested in learning English, if they are interested in, they will be easy to learn and enjoy the class. Song is created to be enjoyed and not only be enjoyed but also to propose teaching and learning process. Teacher can use song to teach vocabularies, phrases, sentences rule, or others. So the teacher can decide the suitable song for the teaching and learning needs and purposes. So the children can enjoy the song while learning some materials, sometimes they do not realize that they are learning during singing a song. There are some characteristic of songs for children: □

- The notes of the song should be the easy to follow □
- There are many repetitions, usually to memorize some vocabularies or phrases
- Interesting, happy, fast and attractive □
- The song is usually short
- The content of the song is related to the materials

The teacher hopes through the song, the children can sing a song out of the class too, and then they can memorize the materials happily and joyfully. These are some orders in teaching English for young Learners using song:

- Listening a song and repeating The teacher just plays the song then asks the students to repeat after the song is played. The repetition can be done by the whole class then randomly.

- Listening and filling blank space of song. The teacher gives the students a piece of paper containing some missing word of the song, and then the teacher asks the students to fill the missing word based on the song.

- Listening a song and retelling the song

Conclusion

Teaching English for young Learners is interesting activities. Before teaching young learners, teacher should know the characteristics of young learners and the student's needs. Then the teacher can divide the method, the model or technic of teaching young learners. Teaching Young Learners should be interesting, happy, and attractive. The teacher can use colorful picture, song, and game. Those should be suitable for the children. Then every teacher of young learners must be creative and always cheerful, because he/she face children. Every kinds of media, method, and technic can be improved by the teacher as creative as possible.

REFERENCES:

1. Edited by Fiona Copland, et al. 2012. Teaching English "Crazy Animal". British Council.
2. Ebru et al. 2013. 'Teaching English to Young Learners: through the eyes of EFL Teacher Trainers'. Internal Association of Research in Foreign Language Education and Applied Linguistics ELT Research Journal 2013, 2(3), 95-10
3. Halliwell, S. 1992. Teaching English in Primary School. London: Longman
4. Long, H. M. 1990. 'Maturational Constraints on Language Learning'. Studies in Second Language Acquisition: 12/251-85.
5. McLaughlin, B. 1978. Second Language Acquisition in Childhood. Boston: Allyn and Bacon.
6. Scott, W. A. and Lisbeth H. Y. 1992. Teaching English to Children. London: Longman.
7. Suyanto, K. K. E. 2004. 'Pengajaran Bahasa Inggris di Sekolah Dasar: Kebijakan, Implementasi, dan Kenyataan'. <http://malang.ac.id/indo/prof.htm>
8. Suyanto, Kasihani K. E. 2007. English for Young Learners. Jakarta: Bumi Aksara
9. Widodo, H. P. 2004. 'Pengajaran English for Young Learners (EYL) melalui Games, Nursery Rhymes, Song, and Storytelling: TEKNOBEL 5/1: 45-57
10. Saydalievich, U. S., Abdurashid ogli, A. S., & Qurbonboy ogli, X. J. (2021). UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 924-929.
11. Ismoilovich, M. R., Saydaliyevich, U. S., & Murodjon og, B. K. (2022, May). РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 447-452).
12. Akhmedov, A. N., & Abdurakhimov, S. A. (2018). The study of the grinding process of rushanka from the nuclei of cotton seeds of different varieties. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING, 2018(3), 17.
13. Saydaliyevich, U. S. (2022). Struggle of the peoples of Central Asia against the Achaemenids Tomaris, Shirak. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 6, 64-67.
14. Ogli, Y. A. B., Ogli, A. J. I., & Ogli, U. S. S. (2021). HOLY DEFENSE OF THE COUNTRY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 544-546.
15. Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2021). Formation Of Science as A Value and Classification of Values. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 3, 172-178.
16. Arabboy, Y., Sardorbek, S., & saidakbar Saydaliyevich, U. (2022). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF ACCOLOGICAL

APPROACH. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(9), 280-283.

17. Khalilovich, M. S., Saydaliyevich, U. S., & Ogli, A. O. M. (2022). EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY AND PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 572-574.
18. Kuyoshbek, Y., Nurmukhammad, K., Arabboy, Y., Sardorbek, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022, May). THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY THE ARABS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 130-134).

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA HUJJATLARNI TAHLIL QILISH

Abdusamatova Odinaxon Abdusalom qizi

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich 21.119-
guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsiologiya fanida qo'llaniladigan hujjat atamasi va uning turlari haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Qolaversa, hujjatlarni tahlil etish metodi guruhlariga to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lasiz. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozimligi qayd etilgan. Zero, hujjat tadqiqotning muayyan bilimlari to'plamidir. Har qanday metodning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari taraflari bo'lgani kabi hujjatlarni tahlil qilish metodining mana shu taraflari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: sotsiologik tadqiqot, hujjat, shaxsiy va shaxxsiz hujjatlar, rasmiy va norasmiy hujjatlar, hujjatlarni tahlil qilish metodi, an'anaviy va tarkibiy tahlil, yozma, fonetik va ikonografik hujjatlar.

KIRISH

Sotsiologik tadqiqotlar – faqat fan ichida yaratiladigan, tashkillashtiriladigan va amalga oshiriladigan sotsiologik nazariya orqali boshqariladigan sotsiologik mavzuga bag'ishlangan, boshqa turdosh bilimni emas, aynan sotsiologik bilimni rivojlantirish imkonini beradigan tadqiqotlardir.

Biz sotsiologik tadqiqot o'tkazayotganimizda, avvalo, uning strategik hujjatlarini – dasturini tayyorlashimiz muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu dasturda biz tadqiqotning maqsad va vazifalarini, obyekt va predmetlarini belgilaymiz, hatto bajarilish muddatidan tortib, qo'llanilishi kerak bo'lgan metodlarni ham kiritamiz. Ma'lumki, tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan ko'plab metodlarni bilamiz. Shular qatorida hujjatlarni tahlil qilish metodi haqida fikr yuritsak. Umuman olganda, hujjat tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

Sotsiologik tadqiqotda hujjatlarning ahamiyati qanday?

Tadqiqot jarayonida hujjatlarni tahlil qilish metodi nima uchun kerak?

Biz bu metod orqali nimalarga erishishimiz mumkin..?

Keling, shu kabi savollarga javob beramiz.

1. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri – hujjatlarni o'rganish usulidir. Hujjat o'z sematik ma'nosiga ko'ra isbot etish mazmunini ifodalovchi so'zdir. Hujjat moddiy material manba hisoblanib, voqea va faktlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi. Sotsiologiyada hujjat deganda tekstlardagi bosma va qo'lyozma shaklida yozilgan informatsiyalarni, magnit lentasiga foto va kinoplenkalarga yozilgan informatsiyalarni tushunamiz. Hujjat sifatida turli formulalar, chizmalar, grafiklar, ramziy belgilar ham bo'lishi mumkin. Hujjatlar bir necha asoslarga bo'linadi:

Informatsiyaning qo'lyozma, bosma, kino, foto, magnitafon lentalariga yozish shakllari qayd etiladi.

Shaxsiylashtirish darajasi bo'yicha hujjatlar shaxsiy va shaxssizga bo'linadi:

Shaxsiy hujjatlarga buxgalteriya hisobi kartalari (kutubxona varaqalari, anketalar, shakllar va boshqalar) shaxsga berilgan xususiyatlar, xatlar, kundaliklar, bayonotlar, esdaliklar kiradi.

Shaxssiz hujjatlar- statistik yoki voqea arxivlari, matbuot ma'lumotlari, yig'ilishlar bayonnomalari va boshqalarni kiritishimiz ham mumkin.

Vaziyatga qarab manbani rasmiy va norasmiy hujjatlar deb e'tirof etamiz:

Rasmiy hujjatlar – hukumat materiallari, farmonlar, bayonotlar, rasmiy yig'ilishlarning stenogrammasi, davlat va idoraviy statistik ma'lumotlari arxivlar va turli muassasa va tashkilotlarning amaldagi hujjatlari, ishbilarmonlik yozishmalari, bayonnomalar, sud tizimi va prokurorlar, moliyaviy hisobotlar va boshqalar.

Ular davlat va jamoat tashkilotlarining yuridik va mansabdor shaxslari tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

Norasmiy hujjatlar – ko'plab shaxsiy materiallar, shuningdek, shaxslar tomonidan tuzilgan shaxssiz hujjatlar, boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'z kuzatuvlari asosida tuzilgan statistik hisobotlar.

Tuzilishiga ko'ra ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi:

Ichki hujjat – muassasa yoki korxonani o'zida tuziladigan va shu korxonada ichida foydalaniladigan hujjatlardir.

Tashqi hujjat – korxonaga boshqa tashkilotlar va ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir. Bularga taklifnoma, ishonchnoma, yo'riqnoma, kafolat xati, tavsiyanoma va boshqalar kiradi.

Barcha sohalarda hujjatlar bir necha jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi. Misol uchun, mazmuniga ko'ra: sodda va murakkab hujjatlar.

Sodda hujjatlar – bir masalani opz ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga ariza, tilxat, e'lon, kafolat xati va boshqalar kiradi.

Murakkab hujjatlar – bir necha masalani o'z ichiga olgan hujjatlardir. Bularga shartnomalar, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy, na'munaviy, qolipli hujjatlar farqlanadi.

Xususiy hujjatlar – tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir. Bularga xizmat, so'rov, iltimos, javob, kafolat, axborot xatlari va boshqalar kiradi.

Qolipli hujjatlar – odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir. Bularga ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, mehnatga layoqatsizlik varaqalari, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari va boshqalar kiradi.

Namunaviy hujjatlar – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq, bir – biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga tavsiyanoma, ariza, e'lon, taklifnoma va boshqalar kiradi.

Ma'lumotlar manbayiga qarab biz hujjatlarni birlamchi va ikkilamchi hujjatlarga bo'lamiz.

Birlamchi hujjatlar muayyan vaziyatlarni, shaxslar va organlar va boshqalarni tavsiflaydi.

Ikkilamchi hujjatlar yanada umumlashtirilgan, tahliliy harakterga ega bo'lib, chuqurroq analitik ijtimoiy aloqalarni aks ettiradi.

Axborotni uzatish uslubiga qarab ular orasidagi farq ajratiladi.

Yozma hujjatlar – barcha turdagi bosma va qo'lda yozilgan mahsulotlar. Masalan, kitoblar, xatlar matbuot, statistik va boshqa haqiqiy nashrlar va hokazo;

Fonetik, ya'ni eshitish qobiliyati uchun mo'ljallangan (radio, gramofon, lenta, lazer va kompyuter audio yozuvlari)

Ikonografik hujjatlar – ya'ni vizual ravishda qabul qilinadi. (video, foyo, film hujjatlari, rasmlar, bosma nashrlar va boshqalar)

2. Hujjatlarni o'rganish ham sotsiologik ma'lumotlar yig'ishda o'ziga xos o'ringa ega. Hujjatlarni o'rganish metodlarini 2ta katta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy va formallashtirilgan. O'z navbatida, an'anaviy metodlar ham 2 guruhga bo'linadi:

A) Umumiy – (tushunish, intuitsiya, anglab yetish)

B) maxsus (mabalarga asoslanish, psixologik, yuridik metodlar)

Formallashtirilgan metodlarga kontent -analizni kiritish mumkin.

Hujjatlarni o'rganish usullarini quyidagilarga bo'lamiz:

1. Statistik

2. Avtobiografik

3. Kontent -analiz.

Bu usullarning birinchisi va ikkinchisi hujjatlarni an'anaviy va mazmuniy tahlil qilsa, ya'ni muayyan tadqiqot obyektni tashqi koprinishi, nima haqidaligi, muallifi, ishonchlilik me'yor, foydalilik darajasi, kimga mo'ljallanganligi, qaysi tildaligi va hokazolar atroflicha o'rganilib xulosa qilinadi. Kontent tahlilda esa tadqiq etilayotgan obyektning o'rganish ko'lamini jiddiy teranlashadi va tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan manbaning mohiyat asoslariga nazar sola boshlaydi.

Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim: Tashkilot, muassasa va mansabdor shaxslar tomonidan beriladigan hujjatlar umumiy qabul qilingan muayyan guvohlik mazmunini ifodalovchi rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi.

a) Hujjatlarda muhr, shtamp, bosmaxona blanki belgilari bo'lib, ular muayyan muassasa, tashkilotga tegishli ekanligidan dalolat berib turadi.

b) Hujjat ma'lum mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo'lib, uning ismi sharifi va unvoni aks etadi.

c) Hujjatda u tuzilgan joy, vaqt, qabul etish va muayyan adresga jo'natish belgilari qayd etilgan bo'ladi.

Albatta, sotsiologiya fani uchun hujjatda aks ettirilgan mazmun birinchi darajali ahamiyatga ega, ammo mazkur hujjatning nechog'lik haqqoniyligi va realligi uning tuzilish shakliga ham bog'liqdir.

Hujjatlarni tahlil qilish – dastlabki ma'lumotlar to'plashning keng tarqalgan va samarali usullaridan biri. Jamiyatning ma'naviy moddiy hayotini aks ettirgan hujjatlar nafaqat ijtimoiy voqelikning voqea, haqiqat tomonini aks ettiradi, balki barcha ifoda vositalarining va eng avvalo, til tuzilishining rivojlanishini qayd etadi. Ularda alohida shaxslar, jamoalar, aholi guruhlari va umuman, jamiyat faoliyati jarayoni va natijalari haqida ma'lumotlar mavjud. Shu sababli hujjatli ma'lumotlar sotsiologlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Ular o'z tadqiqotlari davomida ko'plab xilma – xil hujjatlar :

1. Davlat va hukumat hujjatlari;
 2. Statistik to'plamlar va ro'yxatga olish materiallari;
 3. Idoraviy hujjatlar;
 4. Badiiy va ilmiy nashrlarning asarlari
 5. Matbuot;
 6. Siyosiy rahbarlarning chiqishlari;
 7. Barcha qatlam vakillarining xatlari
- ni o'rganadilar.

Sotsiolog dastlabki ma'lumotlar to'plash uchun qanday usullardan foydalanishidan qat'iy nazar, mutlaq ko'p tadqiqotlarning boshida hujjatlar bilan tanishadi. Ushbu bosqichda hujjatlar, qoida tariqasida, mustaqil sotsiologik tadqiqotlar obyekti emas, faqat ma'lumotlarning yordamchi manbayi hisoblanadi. Ushbu funksiyani 4ta hujjatlar guruhi bajarishi mumkin:

1. Tadqiqot to'g'risidagi ma'lumotlarning to'plamlari;
2. Protokollar
3. Tarnskriptlar
4. Shaxsiy hujjatlar.

Hujjatlar tahlili ilmiy izlanish usuli sifatida tadqiqotning 2ta turiga asoslanadi: miqdoriy semantik tahlil va amaliy sotsiologiyada qo'llaniladigan asosiy usul – hujjatlar tarkibini tahlil qilish. Qolaversa, hujjatlar tahlilini ichki va tashqi tahlillarga bo'lishi mumkin. Tashqi tahlil – hujjatlarning paydo bo'lishi sharoitlarini, uning tarixiy va ijtimoiy kontestini o'rganish. Ichki tahlil – bu hujjat tarkibini, manbaning matni bilan tasdiqlanadigan hamma narsani va hujjatda bayon etilgan obyektiv jarayonlar va hodisalarni o'rganish.

Hujjatlarni tahlil qilishning har xil turlari mavjud. Ko'pincha 2 asosiy turdan foydalaniladi:

Sifatli (an'anaviy) va rasmiylashtirilgan(tarkibiy tahlil) . Hujjatlarni o'rganishda ushbu 2ta yonashuv ko'p jihatdan farq qiladi, ammo ular bir- birini to'ldirishi mumkin.

Sifatli tahlil ko'pincha rasmiylashtirilgan tahlil uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi. Sifatli (ana'naviy) tahlil deganda, hujjat tarkibidagi ma'lumotlarni tadqiqotchi tomonidan

har bir alohida holatda qabul qilingan muayyan nuqtayi nazardan izohlashga qaratilgan turli xil aqliy operatsiyalar tushuniladi. An'anaviy tahlil hujjatlarni mazmunining chuqur , yashirin tomonlarini yoritishga imkon beradi . Hujjatlarni tahlil qilishning ushbu usuli kamchiliklari — subyektivlikdir.

Sifatli tahlil mustaqil usul sifatida noyob hujjatlarni o'rganishda alohida ahamiyat kasab etadi. Ularning soni har doim kam bo'ladi, shuning uchun ma'lumotlarni miqdoriy qayta ishlashga ehtiyoj qolmaydi.

Rasmiylashtirilgan tahlil qilish – bu hujjatlarni miqdoriy usuli , ya'ni tarkibini tahlil qilish. Ushbu usulning mohiyati miqdoriy , oson hisoblanadigan belgilar, xususiyatlar, hujjatlarning xususiyatlarini aniqlashdir. Rasmiy tahlilning kamchiliklari shundaki, rasmiy koprskichlar bilan hujjatning barcha parametrlarini o'lchash mumkin emas. Tarkibni tahlil qilish – bu o'rganish maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda matn xususiyatlarini obyektli va tizimli ravishda aniqlash orqali xulosa chiqarish usuli.

Hujjatlarni tahlil qilish metodi tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lumotlarni olishga qaratilgan hujjatlarni tizimli o'rganishdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, sotsiologiyadagi hujjatli manbalarni tahlil qilish – bu ba'zi tadqiqot muammolarini hal qilish uchun ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishda sotsiologik ma'lumotlarni hujjatli manbalardan olish uchun qo'llaniladigan uslubiy- texnika va protseduralar to'plamidir.

Hujjatlarni tahlil etish - har qanday hujjatda mavjud bo'lgan ma'lumot

axborot manbasi sifatida xizmat qiladigan sotsiologik tadqiqot metodidir. Axborot manbalari quyidagilardan iboratdir: bayonnomalar, ma'ruzalar, qarorlar, rezolyutsiyalar, gazeta va jumaldagi maqolalar, xatlar, badiiy asarlar,

illyustratsiyalar va hokazo. Bu metod ro'y berib o'tib ketgan hodisalar, ishtirokchilarni so'rov qilish imkoniyati bo'lmagan bevosita kuzatuvlar haqida ma'lumotlar olishga imkon beradi. Ko'p yillar mobaynida bir hodisaning matnlar bo'yicha o'rganish uning o'zgarib va rivojlanib borish jarayoni xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib , hujjatlarni tahlil qilish hujjatlarda aks etgan ijtimoiy hodisa va jarayonlar to'g'risida , shuningdek, ushbu hodisalar va jarayonlarga jamiyatdagi munosabatlarning o'zgarishi topg'risida muhim mazmunli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ushbu tahlil metodini o'rganish vaqtidan ancha uzoq bo'lgan voqealarga aholining munosabatlarini o'rganish uchun muvaffaqiyatli qo'llashimiz mumkin ekan.

Sotsiologik tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanishning afzallik tomonlari – axborotlarni chiqarishga hojat yo'q, chunki bu usul allaqachon mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanadi.

Qabul qilingan ma'lumotlarning yuqori darajadagi ishonchliligi bo'ladi, sababki, hujjatlar tekshirish uchun eng qulay vositadir.

O'tmishdagi hujjatlarni tahlil qilish orqali boshqaruv tizimining tarixiy jihatdan o'rganish qobiliyatiga ega bo'lishimiz ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muqimjon Qirg'izboyev. SOTSILOGIYA(O'quv qo'llanma). «Navro'z» nashriyoti, Toshkent . 2009
2. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., OtaMirzayev O.B., va boshq. - Toshkent, 2001
3. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriyev N.S va Ubaydullayeva R.T tahriri ostida)- Toshkent: 1999
4. R. Umarova , B.Sarkisov. Sotsiologiya (o'quv qo'llanma) Toshkent. 2004
5. Sotsiologiya fanidan ma'ruza matni (V. Karimova tahriri ostida) Toshkent. 2000
6. Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi . T: ToshDU, 1999.
7. Sotsiologiyadan ma'ruza matni.
Xadjiev Umrbek Shonazarovich , Urganch :2015.
8. X.B. Saitxodjayev. Sotsiologiya Darslik Toshkent: 2017.
9. lawyer-greet.ru.
10. Wikipedia.org
11. Studopedia.org
12. Fayllar.org
- Saydalievich, U. S., Abdurashid ogli, A. S., & Qurbonboy ogli, X. J. (2021). UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 924-929.
- Ismoilovich, M. R., Saydaliyevich, U. S., & Murodjon og, B. K. (2022, May). РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 447-452).
- Akhmedov, A. N., & Abdurakhimov, S. A. (2018). The study of the grinding process of rushanka from the nuclei of cotton seeds of different varieties. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING, 2018(3), 17.
- Saydaliyevich, U. S. (2022). Struggle of the peoples of Central Asia against the Achaemenids Tomaris, Shirak. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 6, 64-67.
- Ogli, Y. A. B., Ogli, A. J. I., & Ogli, U. S. S. (2021). HOLY DEFENSE OF THE COUNTRY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 544-546.
- Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2021). Formation Of Science as A Value and Classification of Values. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 3, 172-178.

Arabboy, Y., Sardorbek, S., & saidakbar Saydaliyevich, U. (2022). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF ACCOLOGICAL APPROACH. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(9), 280-283.

Khalilovich, M. S., Saydaliyevich, U. S., & Ogli, A. O. M. (2022). EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY AND PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 572-574.

Kuyoshbek, Y., Nurmukhammad, K., Arabboy, Y., Sardorbek, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022, May). THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY THE ARABS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 130-134).

THE ROLE OF INCENTIVE AWARDS AND GRANTS IN EDUCATING PROCESS

Madina Bahadirovna Mirkasimova

Associate professor

Xasanova Arofatxon O'rinboy qizi

student of Tashkent state Pedagogical University named after Nizomiy

Abstract: *A number of positive effect events are being held in country aimed at educating the younger generation, educating their education and resourcefulness, as well as supporting and encouraging young creative people working in various fields. The announcement of various educational grants among the youth of the republic, the opportunities provided to young people for education, indicate a high level of intellectual potential of young people in the future. Also to wake up the potential to teaching among educators. [1] This thesis informs about the importance of awards, grants and motivation in process of teaching young learners.*

Key words: *rewards, grants, motivation, professional developments, achievements, awards, educating methods.*

INTRODUCTION

